

Date: 13th February-2025

MIGRANTLARNING QONUNY HUQUQLARI VA MIGRATSIYA
SOHASIDAGI HUQUQIY JARAYONLAR

Chuboyeva Ozodaxon Quvonchbekovna

NamDU Yuridik fakulteti dotsenti

Ibroximov Muxammadyusuf Sogiqjon o'g'li

NamDU Yuridik fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi migratsiya globalizatsiyasi hamda O'zbekiston Respublikasida va boshqa davlatlardagi migratsiya sohasiga oid islohotlar va bir necha davlatlarning migratsiya sohasiga aloqador qonun hujjatlari, shuningdek, ushbu hujjatlarda belgilangan migrantlarning qonuniy huquqlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: migratsiya, migrantlar, migratsiya globalizatsiyasi va boshqalar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются современная глобализация миграции и реформы в сфере миграции в Республике Узбекистан и других странах, а также правовые документы ряда стран, связанные с сферой миграции, а также определенные юридические права мигрантов.

Ключевые слова: миграция, мигранты, глобализация миграции и др.

Abstract: This article discusses today's globalization of migration and reforms in the field of migration in the Republic of Uzbekistan and other countries, as well as the legal documents of several countries related to the field of migration, as well as the legal rights of migrants defined in these documents.

Key words: migration, migrants, globalization of migration, etc.

Migratsiya so'zining dastlabki ta'riflaridan biri XIX asr oxirlarida (taxminan 1885-1889-yillar) ingliz olimi hisoblangan Ravenshteyn tomonidan berilgan. Unga ko'ra, migratsiya - bu insonlarning bir joydan ikkinchi joyga doimiy yoxud muvaqqat holatda ko'chishidir. XIX-XX asrlarda esa ushbu so'z davlatlar va turli jamiyatlar hayotidagi o'zgarishlar va rivojlanishlar negizida yanada faollashib bordi.

Barchamizga ma'lumki bugungi dunyo mamlakatlarida ham iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamda madaniy kabi sohalar rivojlanayotgan damda migratsiya globalizatsiyasi yuksalib bormoqda. Ba'zi insonlar ta'lim, kimlardir moliyaviy tanglik va yana ba'zi insonlar muammo yoxud karerasini yuksaltirish yuzasidan bir mamlakatdan o'zga mamlakatlarga ko'chmoqda ya'ni migratsiya faoliyatini amalga oshirmoqda. Ammo ushbu holatlar bir necha insonlarning o'z huquq va erkinliklarini anglamaslik yoki anglay olib ularni amalga oshira olmaslik ortidan jamiyat hayotida bir necha muammolarni keltirib chiqarmoqda. O'zi migrantlar qanday qonuniy huquqlarga ega? Ushbu savolga avval O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va so'ngra Germaniya Federativ Respublikasi (GFR) qonunchiligiga yuzlangan holda aniqlik kiritamiz.



Date: 13th February-2025

- O‘zbekiston Respublikasida xorijiy migrantlarning huquqlari va majburiyatlari:

1. O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat olib borayotgan yoxud istiqomat qilayotgan migrantlar muayyan shartlarga ko‘ra O‘zbekiston hududida yashash va ishlash huquqiga ega bo‘lishlari mumkin. Masalan, doimiy yoki vaqtinchalik yashash uchun yashash ruxsatnomasi, ishlash huquqini olish uchun ishlash ruxsatnomasiga ega bo‘lish;

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish va boshqa majburiyatlarga;

3. Migrant hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi hududida qonuniy istiqomat qilayotgan xorij fuqarolari ta‘lim olish, tibbiy xizmatdan foydalanish, dam olish va shu kabi bir necha huquqlarga;

4. O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan asoslarda, „ O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risida “gi va boshqa qonunlarga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish bo‘yicha murojaat etishi huquqlariga;

5. „Tashqi mehnat migratsiyasi“, „O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi“ hamda boshqa qonun hujjatlariga binoan O‘zbekiston Respublikasi hududida qonuniy asoslarda mulk sotib olish, tadbirkorlik va tijorat faoliyatini maxsus ruxsatnoma yoxud litsenziya asosida amalga oshirish va boshqa huquqlarga egadirlar.

- Germaniya Federativ Respublikasi (GFR) qonunlarida xorijiy migrantlarning huquqlari va majburiyatlari:

1. „Boshpana to‘g‘risida“ gi (Asylgesetz) qonuniga ko‘ra: Germaniyadagi apatridlar va xorijiy migrantlarning boshpana berish to‘g‘risidagi murojaatlarini va ularning boshpana olish huquqiga;

2. „Yashash va ish faoliyati to‘g‘risida“gi (Aufenthaltsgesetz) qonuni: migrantlarning Germaniya Federativ Respublikasi hududida yashashi va ish faoliyati olib borish borasidagi huquqlarini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi kabi maxsus ruxsatnoma va litsenziya asosida amalga oshirish huquqiga;

3. „Mehnat qonuni“ (Arbeitnehmerrechte) qonuni: dam olish huquqi, o‘z ishi uchun haq olish huquqi va boshqa huquqlarga;

4. „Ijtimoiy ta‘minot to‘g‘risida“ gi (Sozialgesetzbuch, SGB) qonuni: migrantlarning ijtimoiy ta‘minot, sog‘liqni saqlash va bir qator huquqlardan foydalanish huquqiga ega ekanligini aks ettiradi.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan qonunlar va hujjatlar bugungi kunda migratsiya jarayonidagi muammolarni yanada oson va tez yechim topish maqsadida yanada takomillashtirilmoqda. Boisi, rivojlanayotgan migratsiya jarayoni bevosita o‘zi bilan bog‘liq har bir sohada xoh u qonunchilik, yoxud madaniy soha bo‘lsada, yuksalishga takomillashtirish orqali yo‘l topishga undamoqda. 2019-2024-yildagi migratsiya jarayonidagi o‘zgarish va islohotlarga nazar tashlasak, O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik va me‘yoriy hujjatlari, Prezidenti farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari shuningdek, vazirlik va agentliklarning buyruqlari o‘zga yurt hududidagi migrantlarimiz uchun qulay shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratmoqda. Jumladan:



Date: 13th February-2025

• „Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a‘zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to‘g‘risida“ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (20.08.2019 yildagi PF-57-85-son);

• „Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida“gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (04.04.2024 yildagi PF-59-son) ga binoan 2024-yil 1-iyundan boshlab Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo‘llabquvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) mablag‘lari hisobidan:

a)“Xorijda ish” mehnat migratsiyasi

elektron majmuasida ro‘yxatdan o‘tgan	dasturiy tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarga:
---------------------------------------	--

Xorijiy tillar va (yoki) kasb bo‘yicha malaka imtihonlarini topshirish bilan bog‘liq xarajatlarini qoplash uchun, bosharti ular muvaffaqiyatli topshirilganda va sertifikat olinganda — bazaviy hisoblash miqdorining uch baravarigacha miqdorda; Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirishga “ishchi viza”ni rasmiylashtirish bilan bog‘liq xarajatlarini qoplash uchun — bazaviy hisoblash miqdorining besh baravarigacha miqdorda; Yo‘l chiptasini xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlarini qoplash uchun

— bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravarigacha miqdorda kompensatsiya to‘lanishi;

v) sug‘urta tashkilotlariga — “Ijtimoiy himoya Noyagona reyestri” axborot tizimi orqali kam ta‘minlangan oila sifatida e‘tirof etilgan yoki “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”dan biriga kiritilgan va tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarning sog‘lig‘i va hayoti, shuningdek, boshqa tavakkalchiliklarini sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urta mukofotini qoplash maqsadida har bir sug‘urtalangan fuqaro uchun yiliga bir marta ellik ming so‘mgacha miqdorda subsidiya to‘lanishi;

g) xorijda mehnat qilish davrida zo‘ravonlikka, majburiy mehnatga duchor bo‘lgan va kamsitilgan, mehnat hamda boshqa huquqlari buzilgan, murakkab moliyaviy ahvolda, shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarsiz va yashash uchun mablag‘siz qolgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga advokatning, yuridik xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilotlarning yoki huquqni muhofaza qilish tashkilotlarining xizmatlari uchun belgilangan tartibda haq to‘lanishi belgilab qo‘yildi. Qolaversa, 20 dan ortiq migratsiya sohasidagi jarayonlarni tartibga soluvchi va migrantlari uchun imkoniyat yaratib beruvchi qonun, qaror, farmon va buyruqlar qabul qilindi.



Date: 13th February-2025

Rossiya Federatsiyasining migratsiya siyosati ham bugungi kunda qator o'zbek migrantlariga ba'zi imkoniyat va majburiyatlarni yuklaydi. Migratsiya sohasidagi hamkor hisoblangan Rossiya Federatsiyasidagi quyidagi islohotni yuqoridagi so'zlarga isbot tarzda ifodalash mumkin: Rossiya Federatsiyasining 2019- 2025- yillarga mo'ljallangan davlat migratsiya siyosati asosan Rossiyaning ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojini qondirish va Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O'zbekiston kabi asosiy mehnat migrantlari yetkazib beruvchi mamlakatlar bilan hamkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan konsepsiyasida Rossiya Federatsiyasi o'z migratsiya sohasidagi rivojlantiruvchi tamoyillarni belgiladi. Konsepsiyaga muvofiq migratsiya siyosatining yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Chet el fuqarolarining moslashuvi uchun sharoit yaratish;
2. Talabalar, olimlar va professor-o'qituvchilarning erkin harakatlanishiga ko'maklashish;
3. Federatsiyasining migratsiya muammolarini hal qilish uchun sharoit yaratish;
4. Rossiya Federatsiyasining migratsiya qonunchiligini buzish va migratsiya sohasidagi korrupsiyaning oldini olish, ogohlantirish, aniqlash va ularga barham berish mexanizmlarini takomillashtirish, shu jumladan ko'rsatilgan qonunlar va Rossiya Federatsiyasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik choralari qo'llash va boshqalar.

Xulosa qilib ta'kidlaydigan bo'lsak, bugungi kunda har bir mamlakatda migratsiya globalizatsiyasi talab etayotgan, rivojlanayotgan soha uchun takomillashgan qonunchilik tizimi ishlab chiqilmoqda. Migratsiya sohasidagi muammolar va migrantlar muammolari zamon talabiga mos ravishda to'liq bo'lmasada natijali ravishda hal qilinmoqda. Asosiy migratsiya sohasidagi muammolarga yechim dunyo hamjamiyatida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish migratsiya jarayonlaridagi huquqbuzarliklar va migrantlarni huquqi buzilishini oldini oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/uz/docs/-6868721>
2. <https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://migration.uz/documents&ved=2ahUKEwjM8MCLqvSJAxWWHRAIHRIoM68QFnoECBoQAQ&usg=AOvVaw35BIYTAM1NI2LuADfC-Wii>
3. „Политико-правовые формы управления трудовой миграцией в Российской Федерации“, Монография, © В.А.Волох-Москва: Издательский дом „ИМЙ“, 2022.-240с. Публикуется по решению учетного совета НАНО ВО „ИМЦ“ Глава1 Основы государственной миграционной политики и управления миграционными процессами ,1.1. Концепция государственной миграционной политики Российской Федерации на 2019-2025 годы, 13-14- страницы .



Date: 13thFebruary-2025

4.Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. INSON HUQUQLARI XALQARO STANDARTLARI VA MILLIY GENDER MASALALARI. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 33-SON 20.10.2024. 166-170-betlar.

5.Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Oila mustahkamligini ta’minlashda ota, ona, farzandlar tarbiyasi o’rni. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-7 ISSUE-10 (30- October) 44-50. VOLUME 7, ISSUE 10 (30- OCTOBER)

6.Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna.. Oila ma’naviyati-jamiyat taraqqiyoti omili. So’nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. 7-jild 10-son Respublika ilmiy-uslubiy jurnali 13.10.2024. 106- 112

7.Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna.. Nikoh munosabatlarida milliylik va qonun normalarining amal qilishi. So’nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. Respublika ilmiy-uslubiy jurnali. 13-mart, 2024-yil 7-jild 3-son. 131-135

8. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. ХУҚУҚИЙ СОҲАДА АЁЛ СИЙМОСИ. MODERN WORLD EDUCATION: NEW AGE PROBLEMS – NEW SOLUTIONS. International online conference. Date: 3 rdFebruary-2025. 40-43-betlar

